Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
F.Djalilov	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
Махкамова Саида Гайратова	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
Xojiev Ibroxim Ikramovich	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari	1280
Allanazarova B.K.	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan	1286
Abdurakhimova Dilara Karimovna	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari	1290
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnur Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar	1314
Khusniddin Egamnazarov	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	



KIRISH

Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda ikki muhim asosiy masala turadi:

Birinchisi, milliy iqtisodiyotda yaratiladigan milliy daromadni soliqlar va yig'imlar orqali taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida davlat budjeti daromadlarini shakllantirish.

Ikkinchisi, shakllantirilgan davlat budjeti daromadlarini budjet tizimi o'rtasida ularga yuklatilgan xarajat majburiyatlariga muvofiq ichki qayta taqsimlash orqali budjet tizimi budjetlarini vertikal va gorizontal tenglashtirish.

Demak, mahalliy budjetlar uchun solikli daromadlarni shakllantirish ular moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazardan vertikal va gorizontal tenglashtirish mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Soliqlarning budjet daromadlaridagi hissasi, ular bo'yicha hududlarda shakllangan soliq bazasi hisobiga turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlanishi hisobiga budjet tizimi budjetlarining daromadlarini shakllantirish darajasiga asosiy ta'sir etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning o'rta muddatli rivojlanish strategiyasida mahalliy budjet daromadlari bazasini mustahkamlash, ularning budjet-moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarida mahalliy budjetlar orqali strategik dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yuksaltirish hududiy iqtisodiy va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan 3 maqsadda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib, unda "Joylardagi masalalarni hal etishda mahalliy hokimliklarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish va har bir vazifa ijrosi, shuningdek sarflanayotgan mablag'lar yuzasidan jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish" masalasiga alohida vazifa sifatida belgilangan.

Ushbu masala mahalliy davlat hokimiyati organlarining joylardagi islohotlarda faolligini oshirishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan masala sifatida kun tartibiga olib chiqilayotgan bo'lsa-da, mahalliy budjetlar moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha keyingi 5 yil mobaynidagi davlat moliyasida qator tizimi islohotlar olib borilgan.

Mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish, mahalliy budjetga tushumlarning to'liqligini ta'minlash davlat hokimiyati organlarining joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirishning muhim moliyaviy omili hisoblanadi. Keyingi yillarda mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash, ularning birlashtirilgan barqaror daromad manbaini shakllantirish orqali mahalliy budjetlar xarajat majburiyatlarini samaradorligini oshirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi PF-5075 sonli Farmoniga muvofiq mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish jarayonida budjet tizimi budjetlari o'rtasida daromadlarni taqsimlanishida bir qator o'zgarishlar kuzatildi.

Xususan, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha belgilangan soliq tushumlari, jismoniy shaxslar mol mulk va er solig'i, tovarlarning ba'zi turlari bilan savdo qilish va xizmatlarning alohida turlarini ko'rsatish huquqi uchun mahalliy yig'imlarni to'liq xajmda quyi budjetlar ya'ni tumanlar budjetiga o'tkazilishi ularning nafaqat daromad bazasi, balki tumanlar kesimida shakllanadigan budjet-soliq salohiyatidan oqilona foydalanish, soliq bazasini yanada kengaytirishdan manfaatdorligini ta'minlash orqali budjet tizimi budjetlari daromadlarining ortishi ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, shu jumladan budjet daromadlari va xarajatlari bo'yicha vakolatlarning taqsimlanish xususiyatlari bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy barqarorligi masalalari bilan ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar, ekspertlik markazlari tomonidan investitsiya risklarini baholash, ushbu subektlarning kredit layoqati va to'lov qobiliyatini aniqlashga oid turli ilmiy qarashlar mavjud.

Turli darajadagi budjetlar barqarorligining kun tartibida dolzarb ahamiyat kasb etishiga qaramasdan mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini aniqlash va baholashga yagona ilmiy yondashuv etarlicha tizimlashtirilmagan.

Mahalliy iqtisodchi olim yondashuviga L.N. Xazratqulova yondashuviga ko'ra, mahalliy budjetning barqarorligi yuqori budjetlardan quyi budjetlarga ularga yuklatilgan xarajat majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirish uchun o'tkazib beriladigan va ajratiladigan budjet resurslarga nisbatan mustaqilligidir.

Rossiyalik iqtisodchi olim S.G. Almazov iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikning makroiqtisodiy jihatlariga aniqlik kiritib, barqarorlik- konkret iqtisodiy tizim va ushbu iqtisodiy tizim ob'ektlarining iqtisodiyotdagi siklik hodisalarga, shuningdek, tashqi omillar ta'siriga bardosh berish qobiliyati, deb ta'riflaydi. Muallifning fikricha, ob'ekt yoki tizimga xos moliyaviy munosabatlarning ichki tuzilmasi va aloqalarini o'zida mujassamlashtiruvchi moliya mexanizmi barqarorligiga moliyaviy barqarorlik, deb hisoblash nazarda tutiladi. Bizning fikrimizcha ham



moliyaviy barqarorlik umumiy iqtisodiy tizim ob'ektlarining ajralmas qismidir. Shuning uchun moliyaviy barqarorlik tizimni muvozanatdan chiqarishga harakat qilayotgan ichki va tashqi omillar hamda shart-sharoitlarga qarshi turish qobiliyatini moliyaviy jihatlarni ham o'zida aks ettiradi.

Iqtisodchi N.I. Yashinaning barqarorlik tushunchasining moliyaviy-budjet xususiyatlarini yoritish orqali daromadlar xarajatlardan ko'p bo'lgan tizimlar barqarordir, deb ta'kidlaydi va aynan shunday tizimlar barqarorligi "munosib turmush darajasi"ni ta'minlashi mumkinligini e'tirof etib o'tadi. Iqtisodchining ushbu yondashuvi asosan moliya-budjet barqarorligining asosiy kafolati boshqaruvning uzluksiz ob'ekti sifatida daromadlarning xarajalardan ortishi sifatida namoyon bo'luvchi voqelik sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, hududlarning moliyaviy barqarorligi ichki va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillar hamda shart- sharoitlarning kombinatsiyasiga bog'liqligini e'tirof etadi.

Hududlarning moliyaviy va budjet barqarorligi masalalarida keng tadqiqotolib borayotgan Rossiyalik iqtisodchi olim R.M. Tuxtabullin munitsipalitetlar (mahalliy davlat hokimiyati organlari) moliyaviy barqarorligi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga yuklatilgan xarajat va qarz majburiyatlarini xususiy budjet mablag'lari, munitsipal mulklar, qonunchilik bo'yicha belgilangan miqdordan oshmagan holdagi yangi munitsipal qarz majburiyatlari hisobiga qoplash imkoniyati sifatida ta'riflaydi. Bunda budjet barqarorligiga moliyaviy barqarorlikning tarkibiy komponenti sifatida yoritiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy barqarorligiga ushbu yondashuvdagi berilgan tariflarda hududiy davlat hokimiyati organlari uchun qarz mablag'larni jalb qilish vakolatiga asoslangan holda budjet barqarorligiga nisbatan keng tushuncha sifatida yondashilgan.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining ilk fundamental nazariyalarini shakllanish davridayoq budjet barqarorligi ta'minlash bo'yicha davlatning qarz siyosatiga oid ilk qarashlarni shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, D. Rikardo, davlat qarzlari vaqtlararo budjet cheklovlari sharoitida daromad va xarajatlarni muvozanatlashtirish orqali budjet barqarorligiga erishish instrumenti sifatida ta'riflagan. Lekin, ushbu instrumentlar samarasiz istemolni rag'batlantirishi va kelajak avlod uchun qo'shimcha moliyaviy yuk ekanligini ta'kidlagan. Keynschilik maktabining asoschisi hisoblangan J.M. Keyns esa, davlat qarzlari orqali budjet taqchilligini moliyalashtirish orqali qo'shimcha daromadlar hisobiga budjetni muvozanatlashtirish siklik pasayish fazasida samarali fiskal instrument ekanligini ta'kidlaydi.

Iqtisodchi S. Burnsayd fiskal barqarorlik tushunchasini yoritib berish orqali, iqtisodiy taraqqiyot jarayonlariga nisbatan barqarorlik (sustainability) tushunchasidapn foydalanishda odatda mavjud resurslardan foydalanish (masalan, budjet resurslaridan), texnik yangiliklarni yaratish va institutsional o'zgarishlar hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlariga mos keladigan o'zgarish jarayonlari nazarda tutilishini ilgari surgan. Barqarorlikka berilgan ushbu ta'rifda asosan o'zgarishlarga mavjud mexanizmlarning adekvatlik xususiyatlari nuqtai nazardan berilgandi. Demak, fiskal barqarorlik tushunchasida oldingi paragrafimizda ko'rib o'tganimizdek, budjet tizimi budjetlari va xususan, mahalliy budjetlar resurslari hisobiga mahalliy davlat hokimiyati organlari oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishni moliyaviy ta'minlash va shuningdek, turli o'zgarishlar vositasida qo'shimcha xarajatlarni moliyaviy ta'minlash uchun o'ziga xos ravishdagi "zahira yostig'i"ni mavjudligin nazarda tutiladi. Buni ayrim iqtisodchilar to'lov qobiliyati riskini oldini olish maqsadida qo'shimcha xarajatlar uchun mahalliy budjetlardagi "zaxira buferi"ning mavjudligi sifatida ham ta'kidlab o'tishadi. Bunday buferlar odatda budjet barqarorligiga ta'sir etuvchi tizimli risklarni oldini olish maqsadida shakllantirilib, ularni barcha darajadagi budjetlarni shakllantirishda inobatga olish amaliyoti milliy budjet tizimida ham qo'llaniladi.

Demak, budjet barqarorligi tushunchasi soliq to'lovchilarning davlat xizmatlari bo'yicha istemol ko'rsatkichlarini to'liq va o'z vaqtida ta'minlanishida namoyon bo'lsa, davlat qarzlarning barqarorligi davlat fiskal pozitsiyasini (fiscal position) uning to'lov qobiliyati va likvidiligi konsepsiyasini o'zida namoyon qiladi. Xorijlik iqtisodchilar fikriga ko'ra, agar moliyaviy barqarorlikka nisbatan keng tushuncha sifatida qaralib, uning tarkibiy komponentlaridan biri sifatida budjet barqarorligini ko'rib o'tiladigan bo'linsa, uning mezonini qisqa muddatlarda iqtisodiyotdagi turli xil turbulent vaziyatlarda daromad va xarajatlarni muvozanatini ta'minlashdagi budjet tizimi budjetlarining zaifligi (resilience) ekanligi ta'kidlanadi.

Rossiyalik iqtisodchi A.A. Nikiforova mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini yo'qotishi riski va ular xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar sifatida quyidagilarni tizimlashtirib o'tadi: mahalliy budjetlarning soliq salohiyati va natijada etarli daromad manbaiga ega bo'lmasligi orqali ular mustaqilligini yo'qolishiga olib keluvchi federal va hududlar darajasida qabul qilinadigan qonunchilik aktlari; budjet tizimining boshqa darajalariga o'tkazilishi hisobiga munitsipal mulkchilik hajmining qisqarishi; iqtisodiyotdagi, moliya va pul kredit tizimidagi nobarqarorlik holatlarining kuzatilishi.

Fikrimizcha, budjet barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli kompozitsiya usulida tahlil qilishda ularni ichki va tashqi omillarga bo'lish budjet barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarning mazmunini to'liq yoritib berish imkonini bermaydi. Budjet barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni ijtimoiy-iqtisodiy, qonuniy-institutsional va moliyaviy tavsiflari bo'yicha guruhlar ularni boshqarish tizimi samaradorligini oshirish nuqtai nazardan maqsadga muvofiqdir.



S.M. Karataevning fikricha, budget barqarorligining asosiy mezonlari hudud iqtisodiyoti soliq salohiyatiga muvofiq daromadlar bazasining holati, birlashtirilgan xarajatlar va mahalliy budgetlar moliyaviy majburiyatlari, budget jarayonini moliyaviy boshqaruv tizimining sifati kabilar bilan belgilanishi maqsadga muvofiq. Bu o'z navbatida, ichki va tashqi omillarni o'zida mujassamlashtiradi. Yuqoridagi fikriga asoslangan holda budget barqarorligiga ta'sir etuvchi barcha omillarni quyidagicha guruhlashni uslubiyotini ilgari suradi: soliq tushumlari hisobiga mahalliy budgetlar daromadlarini shakllanishi bilan bog'liq omillar, mahalliy budgetlar xarajatlarini boshqarish bilan bog'liq omillar va moliyaviy boshqaruv samaradorligi omillari kabi turkumlarga ajratishni taklif qiladi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng spektrdagi omillar ta'sirida vujudga keladigan moliyaviy risklarni boshqarish nuqtai nazardan tizimli va notizimli risklarga turkumlanishi ma'lumdir. Masalan, budget barqarorligiga ta'sir etuvchi tizimli risklarni o'zida mujassamlashtiruvchi boshqariladigan omillarga budget menejmenti elementlarining ichki tuzilmasi bilan bog'liq omillar, moliya tizimi, hudud iqtisodiyoti bilan bog'liq tizimli risklarni o'zida mujassamlashtiruvchi omillar kiritiladi. Ushbu omillar iqtisodiy- moliyaviy va budget mexanizmi instrumentlari orqali boshqarilib, iqtisodiy rivojlanishning turli sikllarida ular tartibga solinadi. Tartibga solinmaydigan omillar qatoriga hududning geografik joylashuvi, tabiiy kataklizmalar kiritiladi. Shuningdek, davlat boshqaruv tizimining xususiyatlarini inobatga olgan holda moliya sohasidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha vakotalarning taqsimlanishi, hudud iqtisodiyoti va tadbirkorlik subyektlari salohiyati, innovatsion rivojlanish darajasi va boshqa omillar kiritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraklash, analiz, sintez, tizimli tahlil, taqqoslash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqilligimizning qariyb uch dekadasi mobaynida shakllantirilgan milliy soliq tizimi modelida istemoldan olinadigan soliqlar etakchi fiskal omil rolini o'ynamoqda (1-jadval).

1-jadval. Davlat budjeti daromadlarini soliq tushumlari kesimidagi shakllanish dinamikasi, (jamiga nisbatan foizda).

Daromadlar	Yillar									
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Bevosita soliqlar	24,11	24,01	23,22	20,58	28,24	34,01	32,56	31,9	31,5	33,1
Bilvosita soliqlar	52,60	51,48	52,60	53,68	41,39	34,92	37,91	35,4	36	32,1
Resurs to'lovlari va mulk solig'i	13,20	12,93	13,82	15,61	17,55	15,99	16,28	11,8	12,1	13,2
Boshqa daromadlar	10,10	11,58	10,35	10,45	12,82	15,08	13,33	20,9	20,4	21,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Xususan, 2015-2024-yillar davomida davlat budjeti daromadlari tarkibida bilvosita soliqlarning ulushi min 48,21- max 54,24 diapazonida tebrangan bo'lib, ushbu turkum soliqlar asosan umumdavlat soliqlari va yig'implari sifatida markaziy hukumat budjetining (respublika budjeti) daromad manbai hisoblangan.


Bunday sharoitda mahalliy budgetlarning birlashtirilgan daromadlari bo'yicha zaif tavsifdagi daromad tushumlari hisobiga shakllantirilishi asosan umumdavlat soliqlardan meyoriy ajratmalar orqali umumdavlat soliqlaridan daromadlarni qoldirish hisobiga yuqori darajadagi markazdan daromadlarni boshqarish tizimiga asoslangan. Lekin, keyingi yillardagi daromadlarning turkumlari bo'yicha tarkibiy o'zgarishlarga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, bevosita soliqlar, resurslar soliqlari va mol-mulk solig'i va boshqa daromadlarning hissasini umumiy nominal qiymatida keskin o'sishi kuzatilmoqda. Xususan, ushbu turkum soliqlar bo'yicha jami daromadlardagi ulushi 2019-yilda 58,61 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 64,6 foizga o'sgan, 2024-kelib 66 foizga o'sgan.

Bizning fikrimizcha, xarajat majburiyalariga asoslangan holda daromad vakolatlarini qonuniy birlashtirish va shuningdek, ayrim markazga tegishli xarajat majburiyatlarini o'tkazish hisobiga uni ijro etish vazifalari kesimidagi budgetlararo transfertlar orqali quyi budgetlarni muvozanatlashtirish siyosati ularning barqarorligini ta'minlash uchun yuqori samarali hisoblanadi. Bunda amaldagi ijtimoiy transfertlar nazarda tutilib, ushbu transfertlarda mahalliy budgetlar asosan tranzit vazifasining bajarishi mumkin.

Xarajatlar hamda soliq va yig'implarni mahalliy budgetlarga birlashtirish siyosatini davom ettirishda mahalliy budgetlarning xarajat majburiyatlarini bajarilmasligi bo'yicha risklarni oldini olishi muhim omil sifatida olinmoqda.



Garchi, hozirgi sharoitda mahalliy byudjetlarni vertikal va gorizontaal tenglashtirish siyosatida qator natijalarga erishilgan bo'lsa-da, byudjetlararo transfertlar tizimida mahalliy byudjetlar uchun kassaviy tafovutlarga ajratilayotgan ssudalar ular joriy likvidligini sikli yo'qolish ehtimolligini mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu holat daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash tizimida ma'lum darajada muammolar mavjudligini tasdiqlaydi.



1-rasm. Byudjet tizimi byudjetlarining davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi, %

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

1-rasmdan ko'rinadiki, mahalliy byudjetlarga birlashtirilgan daromadlardan tushumlarning davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi 2017-yilda 49,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 28,4 foizni tashkil qilgan. Davlat byudjeti daromadlari tarkibida mahalliy byudjet daromadlarining ulushini pasayib borishi xarajat majburiyatlarini moliyalashtirish tizimida Respublika byudjetidan o'tkaziladigan byudjetlararo transfertlar siyosatidagi o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, me'yoriy ajratmalar vositasidagi umumdavlat soliqlaridan tushumlarni taqsimlash siyosatidagi o'zgarish ham ta'sir etmoqda. Demak, mahalliy byudjetlarga ijtimoiy sohadagi xarajatlarning zalvorli yuki sharoitida ularning zaif birlashtirilgan daromad bazasining shakllantirilayotganligi ular moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda oxirgi 5 yil mobaynida hududlarning ulushi turlicha bo'lgan.

2-jadval. Hududlar kesimida mahalliy byudjetlar daromadlarining ulushi to'g'risida ma'lumot, jamiga nisbatan foizda

Hududlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Qorqalpog'iston Respublikasi	7,84	8,39	9,90	5,31	5,48
Andijon viloyati	7,04	7,46	7,60	6,88	7,11
Buxoro viloyati	6,69	6,85	6,44	6,75	6,75
Jizzax viloyati	4,05	3,53	3,82	4,15	4,01
Qashqadare viloyati	10,42	10,75	8,91	7,74	8,09
Navoiy viloyati	4,69	5,34	5,56	5,54	5,08
Namangan viloyati	5,94	6,36	6,36	6,53	6,75
Samarqad viloyati	8,93	7,30	8,61	8,97	9,19
Surxondare viloyati	5,74	5,24	5,80	5,67	5,73
Sirdare viloyati	2,92	2,32	2,59	2,51	2,57
Toshkent viloyati	9,23	10,58	8,65	10,62	10,18
Farg'ona viloyati	8,66	10,90	9,66	10,42	9,86
Xorazm viloyati	4,87	4,17	4,70	4,96	5,16
Toshkent shahri	12,98	10,81	11,39	13,96	14,05
Jami	100	100	100	100	100

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, jami mahalliy budjetlar daromadlari nominal qiymatida Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg'ona viloyati Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari etakchi ulushga ega bo'lgan. Xususan, Toshkent shahri mahalliy budjetining jami mahalliy budjet daromadlaridagi ulushi 2018-2022-yillarda 11,39-14,05 foiz diapazonida tebranib, o'sish suratini namoyon qilmoqda.

Shuni xulosa qilish mumkinki, jami mahalliy budjetlar daromadlarining nominal qiymatini hududlar kesimida shakllanishida yuqori darajadagi hududiy tafovut kuzatilmoqda. Bu o'z navbatida, mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligi uchun zaruriy daromad bazasini shakllantirishda hududlar kesimidagi assimetrik tafovutning ehtimolli risklarini mavjudligini tasdiqlaydi.

Ushbu holat bir tomondan soliqlarni mahalliy budjetlarga birlashtirilgan daromad sifatida o'tkazishda soliq bazasini hududlar kesimida taqsimlanishidagi keskin tafovut hisobiga ham kuzatilishi mumkin. Demak, mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlash uchun ularga soliqlarni birlashtirilgan daromad sifatida berishning o'zi masalaning mutlaq echimi hisoblanmaydi. Balki soliq bazasining hududlar kesimidagi noteks taqsimlanishi "Markaz-hudud" vertikal gorizontida daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmi orqali tartibga solish jarayoni uchun ham ob'ektiv shart sharoit yaratadi.

Qolaversa, mahalliy budjetlar birlashtirilgan daromad vakolatlarini kengaytirish ularning mavjud soliqqa tortish bazasidan oqilona foydalanishlari orqali soliq tushumlarining yillik o'sishini ta'minlashdan manfaatdorligini oshirishi lozim. Bu o'z navbatida soliq tushumlari hisobiga mahalliy budjetlar daromadlarini yillik o'sishini taxminlash orqali ularni barqarorligi uchun mustahkam zamin yaratishilishini taqozo qiladi.

Keyingi yillardagi mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash bilan bog'liq islohotlar natijasida ularning daromadlarini nominal qiymatining yillik o'sishi kuzatilgan. Lekin, ushbu o'sish barcha hududlar kesimida ham bir xil tendensiyani namoyon qilmagan.

3-jadval. Hududlar kesimida mahalliy budjetlar daromadlarining yillik o'sishi to'g'risida ma'lumot, o'tgan yilga nisbatan foizda

Hududlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Qorqalpog'iston Respublikasi	100	205,4	93,0	68,1	126,1
Andijon viloyati	100	203,4	80,2	114,8	126,5
Buxoro viloyati	100	196,5	74,0	133,2	122,3
Jizzax viloyati	100	167,3	85,3	138,0	118,3
Qashqadare viloyati	100	198,1	65,3	110,3	127,9
Navoiy viloyati	100	218,3	82,1	126,5	112,2
Namangan viloyati	100	205,6	78,8	130,3	126,4
Samarqand viloyati	100	156,7	93,0	132,2	125,4
Surxondare viloyati	100	175,3	87,0	124,1	123,8
Sirdare viloyati	100	152,6	87,7	123,0	125,3
Toshkent viloyati	100	220,0	64,3	155,9	117,3
Farg'ona viloyati	100	241,5	69,8	136,9	115,8
Xorazm viloyati	100	164,4	88,8	133,8	127,4
Toshkent shahri	100	159,8	83,0	155,6	123,1
Jami	100	191,9	78,7	127,0	122,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jami mahalliy budjetlar daromadlarini yillik o'sishi 2020 (191,9 %), 2022 (127,0 %) va 2023 (122,3 %) yillarda kuzatilgan bo'lib, umumiy kontekstda yillik pasayish sur'ati kuzatilgan. 2020-yilda Covid 19 global pandemiyasi ta'siridagi iqtisodiy turg'unlikning hududlar iqtisodiyotiga ta'siri natijasida mahalliy budjetlar daromadlari nominal qiymatida yillik o'sish emas balki, 78,7 foizga pasayish kuzatilgan.

Shuningdek, ushbu holatga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida hududlar kesimida mavjud soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish, yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish bo'yicha olib borilgan tizimli islohotlar bo'yicha yetakchi hududlarning faolligi hisobiga kuzatilgan.

3-jadval ma'lumotlari asosida mahalliy budjetlar daromadlarining o'sish sur'atini o'rtacha ko'rsatkich asosida turkumlaydigan bo'lsak, 2022 yilda Qorqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand,



Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri mahalliy budgetlari daromadlarining yillik o'sish sur'ati o'rtachadan yuqori bo'lgan.

Tahlil qilinayotgan davrlarning aksariyatida Jizzax Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlari mahalliy budget daromadlarining yillik o'sish sur'atlari o'rtachadan past ko'rsatkichni namoyon qilgan. 2020 yilda jami mahalliy budgetlar daromadlarining yillik pasayish sur'atiga kuchli ta'sir etgan pasayish tendensiyasini namoyon qiluvchi hududlar Buxoro, Qashqadaryo, Toshkent, Farg'ona viloyatlari hisoblangan. Bundan xulosa qilish mumkinki, jami mahalliy budgetlar daromadlarining yillik o'zgarish tendensiyasi unda yuqori vazni tashkil qiluvchi mahalliy budgetlar daromadlarining o'zgarish tendensiyasiga kuchli bog'langan. Biz tahlil qiliyotgan mahalliy budgetlar ichiga jami mahalliy budgetlar daromadlariga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi hududlar sifatida Toshkent shahri, Toshkent, Qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona, viloyatlarini kiritishimiz mumkin.

Mahalliy budgetlar daromadlarini shakllantirish, hududiy tafovut darajasini baholashning sifat va miqdor jihatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi ko'rsatkichlardan biri aholi jon boshiga mahalliy budget daromadlarini solishtirma tahlil ko'rsatkichidir.

4-jadval. Hududlar kesimida doimiy yashovchi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahalliy budgetlar daromadlari to'g'risida ma'lumot, (ming so'm).

Hududlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Qorqalpog'iston Respublikasi	779,95	1578,72	1445,45	971,67	1209,24
Andijon viloyati	428,36	855,75	673,31	758,60	940,31
Buxoro viloyati	655,60	1271,53	926,71	1219,30	1468,99
Jizzax viloyati	559,77	917,33	765,50	1035,38	1196,55
Qashqadaryo viloyati	606,63	1177,52	752,59	816,12	1021,89
Navoiy viloyati	897,70	1916,90	1545,38	1922,75	2114,61
Namangan viloyati	403,17	812,74	627,22	801,05	990,45
Samarqand viloyati	440,20	675,59	615,26	799,12	981,25
Surxondaryo viloyati	418,46	717,81	610,74	743,51	899,28
Sirdaryo viloyati	655,84	983,97	846,63	1024,04	1257,11
Toshkent viloyati	591,54	1284,39	814,10	1254,78	1489,57
Farg'ona viloyati	438,65	1041,35	713,54	959,45	1088,83
Xorazm viloyati	494,52	799,26	697,88	920,67	1154,04
Toshkent shahri	965,11	1514,72	1227,20	1822,82	2111,72
Jami	561,29	1057,87	817,07	1017,78	1220,04

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, jami O'zbekistonda yashovchi doimi aholi jon boshiga nisbatan mahalliy budget daromadlarining ulushini ko'rib o'tadigan bo'lsak, ushbu ko'rsatkich 2018-yilda 561,29 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1220,4 ming so'mga etgan.

Hududlarda doimiy yashovchi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahalliy budgetlar daromadlarini Respublika bo'yicha o'rtacha darajasidan yuqori ko'rsatkich 2018 yilda 8 ta hududda kuzatilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 5 ta hududga tegishli bo'lgan. Bunda etakchi rolni Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy va buxoro viloyatlari o'ynagan. O'rtachadan eng past ko'rsatkichlar Surxondaryo, Andijon, Samarqand va Namangan viloyatlariga to'g'ri kelgan.

Demak, doimiy yashovchi aholi jon boshiga mahalliy budgetlar daromadlari darajasi bo'yicha tekislashuv jarayoni kuzatilayotgan bo'lib, ushbu holat aholi va uning demografik sotsial tarkibiga asoslangan holda daromadlarni taqsimlash mutanosibligini ta'minlayotganligidan ham dalolat beradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, mahalliy budgetlar daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida tuman va shahar budgetlarining daromadlarini yuqori yillik o'sishi kuzatilgan. Bu o'z navbatida, viloyat budgetiga kelib tushadigan mahalliy soliqlar bo'yicha tushumlarni tuman va shahar budgetlariga birlashtirilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchiidan, Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda hamon respublika budjetining etakchi roli, budjet daromadlarini Respublika budjeti orqali qayta taqsimlash instrumentlari (budjetlararo trasfertlar) vositasida quyi budjetlar moliyaviy barqarorligini markazdan faol boshqarish tizimi uchun shart sharoit yaratadi.

Ikkinchiidan, daromadlarni o'рта va quyi bo'g'in budjetlari (viloyat va tuman, shahar budjetlari) o'rtasida taqsimlash mexanizmini takomilashtirilishi tuman va shahar budjetlari moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun mustahkam zamin yaratgan.

Uchinchiidan, shuni ta'kidlash joizki, mahalliy darajadagi budjet daromadlarini ichki taqsimoti o'рта bo'g'in (viloyat budjeti) budjetlari tomonidan moliyalashtiriladigan xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish bilan bog'liq moliyaviy barqarorlikni ta'minlash riskini kuchayishiga olib kelishi mumkin.

To'rtinchiidan, iqtisodiy salohiyati yuqori hududlarda davlat budjetga jami undirilgan daromadlarning asosiy qismi "markaz-hudud" vertikal gorizontidagi daromadlarni budjet tizimi budjetlari o'rtasida taqsimlashda yuqori budjetga (Respublika budjetiga) daromadlarni yo'naltiriladi. Demak, ushbu hududlar markaziy hukumat budjet daromadlarini shakllantirish va ushbu budjet bo'g'ini orqali qayta taqsimlash tizimi uchun moliyaviy asosni yaratuvchi donor hududlar hisoblanadi.

Beshinchiidan, hududlardagi aholi qatlami orqalida ijtimoiy xizmatlarga ehtiyojmand aholi qatlamining yuqori ulushi hisobiga mahalliy budjetlar tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy xizmatlarning sezilarni ulushga ega bo'ladigan hududlar uchun birlashtirilgan daromadlar bilan bir qatorda tartibga soluvchi daromadlarning yuqori ulushi ushbu hududlar mahalliy budjeti daromadlarining YaHMdagi ulushining yuqori darajasini ta'minlanishiga ta'sir etadi. Demak, yuqori ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish bilan bog'liq bosim sharoitida mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlashning daromad omili natijasida YaHMdagi mahalliy budjetlar daromadlarining yuqori ulushini ta'minlanishiga ta'sir etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60- son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5075-sonli Farmoni.
3. Хазраткулова Л.Н. Анализ финансовой устойчивости местных бюджетов Республики Узбекистан // Региональные проблемы преобразования экономики, №8, 2019 г.
4. Алмазов С.Г. Совершенствование методики отсечки финансовой устойчивости местных бюджетов: автореф. дис. канд. экон. наук: спец. 08.00.10- "Финансы, денежное обращение и кредит". – Ставрополь: Северо-Кавказский гос. техн. ун-т, 2007. – 23 с.
5. Яшина Н.И. Управление расходами бюджетов административно-территориальных образований: монография / Н.И. Яшина, И.А. Гришунина. – Н. Новгород: Изд-во Нижегород. гос. техн. ун-та, 2004. – 324 с.
6. Тухбатуллин Р.М. К вопросу об отсечке финансовой устойчивости мунитсипальных образований // Казанская наука. - 2017. - № 10. - с. 32-34
7. "Жоҳн Майнард Кейнес – Тимелине". Архивед фром тхе оригинал он 2 Жулий 2021. Ретриевед 26 Май 2012.
8. Бурнside С. Фиссал Суस्ताинабилити ин Тхеорй анд Прастисе: А Ҳандбоок. Тхе Ворлд Банк, 2005.
9. ДъЕрасмо П., Мендоза Е.Г., Зханг Ж. Вхат ис а Суस्ताинабле Публис Дебт? // Ж. Тайлор, Ҳ. Ухлиг (едс.) Ҳандбоок оф Масроесономисс. Елсевиер Публ., 2016. -пп. 2493–2597.
10. Ссхис А. Суस्ताинабле Буджет Полисй: Сонсептс анд Аппроасхес // ОЕСД Жоурнал он Буджетинг. 2005. № 5(1). -пп. 107–126.
11. Фасси Д., Седини С. Десигн Солутионс фор Ресилиенсе // Ҳ. Пинто, Т. НоронҲа, Е. Ваз. (едс.) Ресилиенсе анд Регионал Дйнамисс. Ан Интернационал Аппроасх то а Нев Ресерсх Агенда. Спрингер Интернационал Публисхинг, 2018. -пп. 131–150.
12. Никифорова АА. Факторы финансовой устойчивости и безопасности местного бйуджета // Автореферат диссертатсии на соискание усхеной степени кандидата экономисхеских наук по специальности 08 00 10 – "Финансы, денежное обращение и кредит". -Волгоград, 2007.
13. Каратаев С.М. К вопросу о понйатии устойчивости бйуджета // Дайджест-Финансы. - 2003. - № 5. - с. 39-46.
14. Кендриск, Т. (2009). Манажинг прожест риск. -New Ёрк: АМАСОМ.
15. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
